BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 158 (1219), 2024-yil 8-avgust, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG‘ISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog‘istonga keldi.

Ostona xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kutib oldi.

8-avgust kuni ikki mamlakat yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning birinchi majlisi bo‘lib o‘tadi.

Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-kommunikatsiya, energetika, qishloq xo‘jaligi va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilinadi.

Dasturga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatidagi muloqotda ishtirok etish ham rejalashtirilgan.

O‘zA

YANGI QONUNNING HAYOTIY ZAVQI

O‘z uyiga egalik hissi millionlab yurtdoshlarimiz qalbiga quvonch, kelajagiga ishonch olib kirdi

INSON QADRI UCHUN

Xalqimiz uy-joyni vatan ichra kichik vatan, deydi. Haqiqatan, dunyoga kelishimizdan tortib, shaxs sifatida kamol topishimiz, farzandlarni voyaga yetkazish, milliy urf-odat va tarixiy an’analarni davom ettirish, to‘y qilish, xullas, turmush tutumimiz, orzu-havaslarimiz bilan bog‘liq hamma jarayon aynan uy-joyimizda kechadi.

Uzoq yillar aholini uy-joy bilan ta’minlashga yetarli e’tibor qaratilmagani natijasida ushbu yo‘nalishda qator muammolar yig‘ilib, yurtdoshlarimizning haqli e’tiroziga sabab bo‘lgandi.

2017-2018-yillarga kelibgina vaziyat o‘zgara boshladi: aholi tinglandi, muammolari o‘rganildi, talab va takliflari tahlil qilindi. Shu asosda boshlangan ulkan bunyodkorlik ishlari, xalqqa qayishish siyosatining uch muhim jihatini shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq, nazarimizda.

Avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega ekani, davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantirishi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlab qo‘yildi.

Ikkinchidan, yurtdoshlarimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida to‘rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o‘tgan davrda barcha manbalardan 100 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, hududlarda 6 mingta ko‘p qavatli uy barpo etildi. Pirovardida 250 ming oila yangi boshpanali bo‘ldi. Daromadi yuqori bo‘lmagan 45 mingta oilaga boshlang‘ich badal va foiz to‘lovi uchun 2,4 trillion so‘mlik subsidiya berildi.

Uchinchidan, Prezidentimiz “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi.

Yashin tezligida tarqalgan hamda millionlab odamning quvonch ko‘z yoshlariga sabab bo‘lgan ushbu qonunni nima uchun muhim hisoblayapmiz, uning xalqimizga tegadigan nafi qanday? Ushbu savollarga bir guruh yurtdoshlarimizning dil so‘zlari, mas’ullar izohi orqali javob berishni joiz topdik.

Davomi 3-betda

Biz va dunyo

Markaziy Osiyo — Yaponiya: BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining 9-avgust kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan birinchi sammitida ishtirok etadi.

Mazkur muloqotga joriy yil 20 yil to‘layotgan bo‘lib, u Yaponiya sobiq tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguchining 2004-yil 26-avgustda Toshkentga tashrifi chog‘ida tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida Yaponiya va Markaziy Osiyoning beshta davlati — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi ushbu noyob format o‘zaro aloqalarni chuqurlashtirish uchun muhim platformaga aylandi.

Davomi 2-betda

Qaror va ijro

BILIMLI, HUNARI BOR VA TIL BILGAN KISHI HAR JOYDA QADRLI

YOXUD TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR ILDIZI QAYERDAN BOSHLANADI?

Dunyoning globallashuvi migratsiya ko‘lamini kengaytirmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolayotgani yo‘q. Ammo uzoq yillar davomida migratsiyaning tashkiliy jihatlariga e’tibor bo‘lmadi. Xorijga ketish istagidagi fuqarolar bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilmagani natijasida mehnat migrantlarimizning ahvoli qanchalik tang bo‘lgani bugun sir emas.

Davomi 4-betda

Mahalla yettiligi

OLIS VA YAQIN CHO‘NG‘ARA

Farg‘ona viloyatining tog‘lar bag‘ridagi So‘x, Shohimardon singari anklav hududlari qatorida Rishton tumanidagi “Cho‘ng‘ara” mahalla fuqarolar yig‘ini ham bor. Qishloq geografik joylashuvi jihatidan juda noyob. Chor tarafi qo‘shni Qirg‘izistonning Botkent va Qadamjoy tumanlari chegaralari bilan uyg‘unlashib ketgan.

Davomi 2-betda

Kun mavzusi

ELEKTR ENERGIYASI: YANGILANGAN BILLING TIZIMI ISHGA TUSHIRILDI

Shu yil avgustidan boshlab yurtimizda elektr energiyasini hisoblashning yangi billing tizimi joriy etilishi haqida avvalroq xabar berilgan edi. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJga yuklatilgan mazkur vazifa doirasida dastlab sinov jarayoni o‘tkazildi. Avgust avvalida esa texnik ishlar yakuniga yetkazilib, mamlakatimiz bo‘ylab yangi “HET Billing” dasturiy kompleksi ishga tushirildi. Endi yurtdoshlarimiz ishlatilgan elektr energiyasi bo‘yicha hisob-kitob hamda boshqa barcha ma’lumotlarni eng zamonaviy usullar yordamida tez va qulay olish imkoniyatiga ega.

Mutasaddilarning aytishicha, bugunga qadar amalda bo‘lgan billing to‘lov tizimi, ya’ni iste’molchilarga yetkazib beriladigan elektr energiyasi hisobini yuritish amaliyoti 2012-yilda joriy qilingan. Orada “aqlli” hisoblagichlar o‘rnatilib, tizim qo‘shimcha imkoniyatlar bilan boyitildi. Ammo iste’molchilar soni bilan birga ma’lumotlar bazasiga tushadigan bosim ortishi yangi tizimga ehtiyojni oshirdi. Natijada tizim to‘liq qayta yangilanib, “HET Billing” dasturiy kompleksi ishlab chiqildi.

— Prezidentimizning tegishli qarori bilan “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga yangi billing tizimini ishlab chiqib, 2024-yil oxirigacha to‘liq joriy etish vazifasi topshirilgan edi, — deydi Elektr energiyasini sotishni avtomatlashtirish markazi direktori o‘rinbosari Diyorbek Nishonov. — Jarayon murakkab va yuqori aniqlik talab etgani bois, muayyan muddat davom etdi. 2022-yil oxirida yangi tizim bo‘yicha texnik shartlar ishlab chiqildi.

Davomi 4-betda

STARTAPLAR ZANJIRI

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING MUHIM BO‘LAGIGA AYLANADI

Tahlil

Innovatsion taraqqiyot modellarini joriy etish, ilg‘or g‘oyalar, “nou-xau” va “aqlli” texnologiyalarni eksport qilish orqali rivojlanayotgan davlatlar soni tobora ortib boryapti. Zero, innovatsiya va texnologiyalar mamlakat iqtisodiyoti ravnaqiga sezilarli hissa qo‘shishi barobarida insoniyat hayotini yaxshilaydi, aholi turmushi sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Startap davlat iqtisodiyoti uchun ham, jamiyat hayoti uchun ham muhim ahamiyatga ega zamonaviy hodisadir. Tez o‘sish imkoniyatiga ega yangi yoki ilgari mavjud bo‘lmagan biznes loyihasi innovatsiyani rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va investitsiya jalb qiladi.

Bu noan’anaviy biznes odatda innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish va bozorga chiqarish orqali muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan. Yuqori texnologik yechimlarga asoslangan loyiha tezkor rivojlanish va kengayish maqsadiga xizmat qiladi.

Innovatsion kelajak sari ilk qadam startap ekotizimini yaratishdan boshlanadi. U murakkab tizim bo‘lib, ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi — moliyalashtirishdan tortib, mentorlik, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlaydigan universitetlar va infratuzilmagacha.

Davomi 5-betda

Yaponiyaning mintaqamizga yuqori qiziqishi Markaziy Osiyoning strategik joylashuvi tufayli xalqaro maydonda katta rol o‘ynashi bilan izohlanadi. Mintaqa qadimiy Buyuk ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lib, tarixda turli madaniyat va xalqlarning o‘zaro ta’siri va almashinuvi manzili sifatida nom qozongan. Bugungi kunda mintaqaning barqarorligi va xavfsizligi xalqaro hamjamiyat, jumladan, Yaponiya uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 8-avgust, 158-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Biz va dunyo

Markaziy Osiyo – Yaponiya: BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHDAGI O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

Muloqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad Yaponiya va mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalarni, madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishdan iborat.

Yaponiyaning mintaqamizga yuqori qiziqishi Markaziy Osiyoning strategik joylashuvi tufayli xalqaro maydonda katta rol o‘ynashi bilan izohlanadi. Mintaqa qadimiy Buyuk ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lib, tarixda turli madaniyat va xalqlarning o‘zaro ta’siri va almashinuvi manzili sifatida nom qozongan. Bugungi kunda mintaqaning barqarorligi va xavfsizligi xalqaro hamjamiyat, jumladan, Yaponiya uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaning barqaror rivojlanishiga erishish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar doirasida “odamlarga investitsiya kiritish”, “o‘zaro bog‘liqlik” va “o‘sish sifati”ga alohida e’tibor qaratayotgan, yangi taraqqiyot modelini ilgari surayotgan Yaponiya kabi hamkor mamlakat bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashdan manfaatdor.

Bugungi kunga qadar tashqi ishlar vazirlari darajasida “Markaziy Osiyo — Yaponiya” muloqotining to‘qqizta uchrashuvi o‘tkazilgan. Ularning yakunlari bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi, qisqa va o‘rta muddatli vazifalarni belgilab bergan “harakat rejasi” tasdiqlandi.

Muloqot doirasida Yaponiya savdo va investitsiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika, tabiiy ofatlarni boshqarish, qishloq xo‘jaligi va barqaror rivojlanish, shuningdek, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, Markaziy Osiyoda chegaralarni boshqarish sohalarida mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda yordam bermoqda.

Bundan tashqari, muloqot doirasida vazir o‘rinbosarlari darajasidagi 16 ta, sanoat tarmoqlari ekspertlarining 7 ta uchrashuvi, 11 ta “Tokio intellektual muloqoti” va 2 ta biznes muloqoti tashkil etildi. 2023-yil sentabr oyida birinchi Iqtisodiy va energetika muloqoti bo‘lib o‘tdi. Unda energiya almashinuvi va 2050-yilga kelib, toza nol emissiyasiga erishish tashabbusini tezlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Xulosa o‘rnida aytganda, Ostona shahrida davlat rahbarlari darajasida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammiti so‘nggi yigirma yillikdagi munosabatlarni sarhisob qilish, shuningdek, yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda turli sohalarda o‘zaro manfaatli sheriklik strategiyasini va yangi yo‘nalishlarni belgilab olish imkonini beradi.

“Dunyo” AA

Bunyodkorlik

HUDUDLAR QIYOFASI YO‘LLARDA AKS ETADI

Bir necha yil avval mutasaddilarning aholi bilan muloqotida ta’mirtalab yo‘llar asosiy masalalardan edi. Mahallalardagi qishda loy, yozda chang bo‘ladigan yo‘llar aholi uchun ko‘plab noqulayliklar tug‘dirgani ham bor gap. Bu kabi holatlar bugun ham yo‘q emas. Keng ko‘lamli obodonlashtirish, bunyodkorlik jarayonida bu masala ham bosqichma-bosqich yechim topmoqda.

Hududlar qiyofasida yo‘llar muhim o‘rin tutadi. Shu bois, Navoiy viloyatida joriy yilning o‘tgan davrida 272,4 kilometr avtomobil yo‘li qurilib, ta’mirlandi. Viloyat hududidan o‘tgan 194 kilometrdan ortiq umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘li va unda joylashgan 6 ta ko‘prikda xuddi shu ishlar bajarildi.

Bundan tashqari, aholini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan 78,4 kilometr ichki yo‘l ta’mirlandi. “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” dasturi doirasida ichki yo‘llarda 2,5 kilometr piyodalar yo‘lagi yotqizildi hamda zamonaviy 164 dona tungi yoritqich o‘rnatildi. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘li bo‘ylarini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha muayyan ishlar qilindi. Jumladan, tizim korxonalari tomonidan bahorgi mavsumda 361 ming 220 tup manzarali daraxt va buta ko‘chati ekildi.

— Ayni vaqtda tumanimizda aholi murojaati asosida tanlab olingan 9 mahallaning ichki yo‘li asfalt qilinmoqda, — deydi Xatirchi tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi direktori o‘rinbosari Jamshid Murodullayev. — Bu jarayonda asosiy yo‘llarni kengaytirish orqali piyodalar yo‘lakchasini qurishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xatirchidagi bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari tufayli tuman markazi ancha ko‘rkam qiyofaga kirdi. Xususan, markaziy dehqon bozoriga eltuvchi yo‘l ta’mirlanib, kengaytirildi. Avtomashinalar va piyodalarning xavfsiz harakati uchun zarur sharoit yaratildi.

Avvallari tuman markazida ikki qavatli uylar qurilgan bo‘lsa, hozir 5-7 qavatli turar joylar qad ko‘tarmoqda. Bu ham tuman markazining infratuzilmasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatyapti. Bunday o‘zgarishlar tumanning olis hududlarini ham qamrab olayotir. Xususan, Bo‘g‘irdoq mahallasi tuman markazidan ancha uzoqda joylashgan. Uzoq yillar mahallaning ichki yo‘li ta’mirtalabligi aholi uchun noqulayliklar tug‘dirayotgan edi. Bugun mahalladagi bunyodkorlik tufayli yo‘llar ta’mirlanib, aholi uchun munosib sharoit yaratildi.

Mahalla raisi Hasan Eshimovning aytishicha, hududda 3 mingdan ziyod odam istiqomat qiladi. Ularni ravon yo‘l va ichimlik suv masalasi qiynab kelayotgandi. Yaqinda ushbu muammolarga yechim topildi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mahalla yettiligi

OLIS VA YAQIN CHO‘NG‘ARA

Boshlanishi 1-betda

Asrlar davomida mavjlanib oqayotgan So‘x daryosining sharqiy qismida joylashgan mahallada 1700 nafarga yaqin aholi yashaydi. Cho‘ng‘ara “ulkan g‘or” degan ma’noni anglatadi. Bu yerda “Yigit pirim” (Er Hubbi) maqbara va ziyoratgohi ham joylashgan.

Rivoyat qilishlaricha, katta sayilda kurash tushayotgan o‘ktam yigit banogoh mashhur polvondan ustun keladi. Bir oz o‘tib, mag‘lub polvon o‘zining otasi ekani, ko‘p yillar avval qishloqdan chiqib ketib, qaytib kelganini qo‘lidagi uzuk muhridan bilib qoladi. Bundan orlangan polvon yigit katta g‘or ichiga yig‘lab kirib ketgan ekan…

Baland o‘rkachli tog‘lar ostidan hanuzga qadar bodirab chiqayotgan tiniq suvga ana shu oriyatli, mard yigitning ko‘z yoshi, deya ta’rif berishadi. Bu ko‘hna qishloq hayot tarzi bilan bog‘liq o‘tmish xotiralari.

Bugun bu yerdagi odamlar hayot tarzini o‘zgartirish, emin-erkin yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish yo‘lida hayotga tatbiq etilayotgan yangi tashabbuslar, bunyodkorlik, obodonchilik ishlari chekka qishloqni o‘zgartirmoqda. Jumladan, eski so‘qmoq yo‘llar kengaytirildi, kesak devorli pastqam uylar o‘rnida milliy va zamonaviy me’morlik andazalari asosida yangi turar joylar, madaniy va maishiy inshootlar qad ko‘tarmoqda.

Yaqingacha Rishton-So‘x oralig‘idagi bojxona-chegara posti yopiqligi sababli tuman markazidan Cho‘ng‘ara qishlog‘iga borish juda mushkul edi. Aniqrog‘i, salkam 200 kilometr aylanma yo‘l bosib, Farg‘ona tumanidagi Vodil bojxona-chegara punktidan, yana 40 kilometr Qirg‘iziston hududidan o‘tish zarur bo‘lgan. Bu, tabiiyki, Cho‘ng‘ara qishlog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Qardosh o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasida do‘stlik, birodarlik munosabatlarini rivojlantirish, chegara postlaridan o‘tish tizimini maqbullashtirish, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnichilik rishtalarini tiklash yo‘lida yaratib berilgan sharoit va imkoniyatlar mavjud muammolarga yechim bo‘ldi. Endi Rishton tumani markazidan 25-30 daqiqa yo‘l yurib, Cho‘ng‘araga borish mumkin.

— Mahallamizda yangi ijtimoiy obyektlar qurish, yangi ish o‘rinlari yaratish, farzandlarimizga sifatli ta’lim-tarbiya berish, sport bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda, — deydi “Cho‘ng‘ara” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Rustamjon Boynazarov. — Shu kunga qadar 3 kilometrdan ortiq ichki yo‘lga shag‘al yotqizildi, 1200 metr beton yo‘l qurildi, 260 dan ortiq eski simyog‘och beton tayanch ustunlarga almashtirilib, 6 kilometrdan ortiq elektr tarmog‘i tortildi, 1 ta qo‘shimcha transformator o‘rnatildi. Yoz mavsumida So‘x daryosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan toshqinlarning oldini olish maqsadida umumiy uzunligi bir kilometr bo‘lgan muhofaza to‘g‘oni qurilishi yakunlandi.

Faqat bugina emas. Keyingi ikki yilda 23-qishloq oilaviy shifoxonasi, tez tibbiy yordam tarmog‘i ishga tushirilib, zamonaviy mashina va tibbiyot jihozlari bilan ta’minlandi, 120 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkiloti ish boshladi.

— Betobligimizda qayerga, kimga murojaat qilishimizni bilmay sarson bo‘lganmiz, — deydi Dilfuza Mamanazarova. — Oddiy tashxis, muolaja olish uchun uzoq yo‘l bosib tuman, viloyat markaziga borishga majbur edik. Shifokor ko‘rigiga yetolmay armon bilan ketganlar qancha. Farzandlarimiz bog‘cha nimaligini bilmay ulg‘aygan. Hammasi ortda qolgani rost bo‘lsin. Shifokorlar sog‘lig‘imizni muntazam nazorat qilib boryapti, farzand, nabiralarimiz bolalar bog‘chasiga qatnab, dunyoqarashi, bilim va ko‘nikmalari ortib borayotganini ko‘rib, sevinib ketaman. Mana shunday tinch, farovon, to‘kin-sochin kunlarni ko‘rsatgani, yetkazganiga shukronalar aytaman.

Mahallada 48 xotin-qiz “Ayollar daftari”ga kiritilgan edi. Ayni kunda aksariyatining oilaviy sharoitini yaxshilash, farovonligini oshirishga erishildi. Xususan, uch xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi, 2 nafari tadbirkorlikni boshlash uchun imtiyozli kredit oldi, 3 nafariga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi, 6 nafari kasb-hunarga o‘qitildi, 15 nafari kasanachilik asosida ish bilan ta’minlandi.

Dilnoza Shokirova Buvayda tumanidagi hududiy monomarkazda tikuvchilik yo‘nalishida malaka oshirib kelgach, mahalla hududida o‘quv markazi tashkil qildi. Ayni kunga qadar 50 dan ortiq xotin-qiz kasb-hunarga o‘qitilib, o‘zini o‘zi band qildi.

Surayyoxon Hamroyevaning nogiron farzandi bor. Shu bois, farzandini yolg‘iz qoldirib, biror ishning etagidan tutishga imkon topa olmayotgandi. Mahalla faollari bilan suhbatda tikuvchilik malakasiga ega ekani, ammo uni boshlash uchun imkoniyat topa olmayotganini bildirdi. Unga subsidiya asosida tikuv mashinasi berilib, farzandini davolatish uchun bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi.

— Hayot davom etar ekan, uning o‘ziga yarasha yutuq va muammolari uchrab turadi, — deydi mahalla xotin-qizlar faoli Muazzam Shokirova. — Shu bois, hamma bir yoqadan bosh chiqarib, har bir masalani hamjihatlikda bartaraf etishga harakat qilamiz. Shu kunga qadar 2 ta notinch oilani yarashtirdik. Boy hayot tajribasiga ega ibratli nuroniylar va yoshlar o‘rtasida uchrashuv, suhbatlar o‘tkazish an’anaga aylangan. Mahallamiz anklav hududda joylashgan. Ammo bu boriga ko‘nikib yashash, degani emas. Ayni kunda tadbirkor Muborak Hamroliyeva tashabbusi bilan ayollar go‘zallik salonini ochish harakatidamiz. Mahalla hududidan joy ajratib beryapmiz. Subsidiya asosida kerakli jihozlarni xarid qilishga tavsiya berdik. Bu yerda “ustoz-shogird” an’anasi asosida yoshlarga hunar o‘rgatiladi.

“Mahalla yettiligi” har bir oila hayot tarzi, ish amallari bilan yaqindan tanishib, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga bosh-qosh bo‘lyapti. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan 12 toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun 49 turdagi xizmat va yordamning 23 tasi bevosita mahalla darajasida, xodimlar tomonidan xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgani ayni muddao bo‘ldi.

— Bu aholining ortiqcha vaqti va mablag‘ini tejash, xizmat sifatini oshirish imkoniyatini berdi, — deydi ijtimoiy xodim Ulug‘bek Ismoilov. — Hozirga qadar xatlov jarayonida ijtimoiy himoya bilan qamrab olinmagan 32 fuqaro borligi aniqlandi. Yangi tizim orqali odamlar moddiy yordam va nafaqa tayinlash uchun mahalla darajasida onlayn ariza topshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu kunga qadar 80 yoshga to‘lgan va I guruh nogironligi bo‘lgan 3 nafar shaxsga qarab turish dalolatnomasi rasmiylashtirildi. Nogironlikni belgilash va nogironlik guruhini o‘zgartirish, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarga “Parasport o‘yinlarida tasnif qoidalari va prinsiplari”ga ko‘ra, parasport bilan shug‘ullanishi uchun xulosalar olindi. Kam ta’minlangan 55 ta oilaga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlandi. Bolani vasiylik, homiylik, oilaga tarbiyaga, farzandlikka olish, oilaviy bolalar uyini ochish istagidagi shaxslarning murojaatlariga ijobiy yechim topildi. Keksa va nogironligi bo‘lgan 8 shaxs uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi sanatoriylarga yo‘llanmalar ajratish bilan bog‘liq masalalar hal etildi.

Yil yakuniga qadar “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda kam ta’minlangan 40 ta oilaning doimiy daromad manbaini yaratish, ishlash imkoniyati bor, lekin ish bilan ta’minlanmagan, nogironligi bo‘lgan 5 kishining bandligini ta’minlash, nogironligi bor 4 fuqaroni reabilitatsiya qilish borasida amaliy ishlar qilinyapti.

Salomatxon Alijonovaning farzandiga tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma olish va bolalar nafaqasi tayinlash yuzasidan qilgan murojaati 4 yildan buyon turli sabablar bilan paysalga solib kelingan. Mavjud masala ijtimoiy xodim tomonidan o‘rganib chiqilib, huquqiy taklif va tavsiyalar berilgach, masalaga qonuniy yechim topildi. Qolaversa, farzandini maktabgacha ta’lim tashkilotiga qabul qilish yuzasidan tavsiyalar berildi.

— Mahalla faollari har kuni yo‘qlab keladi, hayot tarzimiz, muammolarimiz bilan tanishib, amaliy yordam berishga harakat qilyapti, — deydi Xolmatjon Yigitaliyev. — Xastalikka chalinib, nogiron bo‘lib qolgandim. Mahalladagi ijtimoiy himoya xodimining amaliy yordami bilan murojaatim atroflicha o‘rganilib, menga qonunda ko‘rsatilgan tartibda nogironlik guruhi belgilandi va moddiy yordam ko‘rsatildi. “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan dori-darmon uchun 3 million 400 ming so‘m bir martalik yordam mablag‘i ajratib berildi. Turmush o‘rtog‘imga ham qarab turish dalolatnomasi tuzildi. Hammasi uchun katta rahmat.

Chekka va olis qishloqlarda ham zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushmoqda. Xomashyoni qayta ishlash orqali eksportbop mahsulot ishlab chiqarish borasidagi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanyapti. Joriy yilning o‘zida tadbirkor Davlat Boborahimov tashabbusi bilan sholini qayta ishlash, qadoqlash tarmog‘i ishga tushirildi. Xudoyberdi Abdullayev esa “Yigit pirim” dam olish majmuasida bolalar o‘yin maydonchasi, zamonaviy attraksionlar faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

— Shu kunga qadar tadbirkorlik, oila¬viy biznesni yo‘lga qo‘yish istagini bildirgan loyiha tashabbuskorlariga 190 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Hikmatjon Mamaqov. — Mahallamizda 62 ta tadbirkorlik subyekti ro‘yxatga olinib, 150 dan ortiq ish o‘rni yaratildi. Istiqboldagi harakatlar rejasiga ko‘ra, agro va ziyorat turizmi salohiyatini kengaytirish, uy mehmonxonalari xizmatini yo‘lga qo‘yish borasida ishlayapmiz. Buning uchun sharoit va imkoniyatlar yetarli. Chunki qishlog‘imizning musaffo havosi, So‘x daryosining hayqirib oqishi sayohatchi va mehmonlarni hamisha o‘ziga maftun etib kelgan.

Bu bilan Cho‘ng‘arada hamma ish joyi¬da, degan fikrdan yiroqmiz. Eng dolzarb masalalardan biri toza ichimlik suv ta’minoti bilan bog‘liq. Mana, ikki yildirki, mutasaddilar masalaga ijobiy yechim topish borasida va’da beryapti, ammo amaliy ishdan darak yo‘q. Hanuzga qadar Cho‘ng‘ara — Rishton yo‘nalishi bo‘ylab avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yilmadi. Mahalla mutasaddilari bu borada o‘z taklif va tavsiyalarini berganini ta’kidlashdi. Biroq muammo o‘sha-o‘shaligicha qolmoqda.

Cho‘ng‘arada 14-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 300 nafardan oshiq. Ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ishsiz yoshlar va maktab o‘quvchilari bilan manzilli ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda “mahalla yettiligi” hamkor, hamfikr. Mahallada yoshlar ishtirokida jinoyatchilik bilan bog‘liq salbiy holatlar qayd etilgani yo‘q. Lekin bu xotirjamlikka asos bo‘lib qolmasligi kerak.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

> **Yaqingacha Rishton-So‘x oralig‘idagi bojxona-chegara posti yopiqligi sababli tuman markazidan Cho‘ng‘ara qishlog‘iga borish juda mushkul edi. Aniqrog‘i, salkam 200 kilometr aylanma yo‘l bosib, Farg‘ona tumanidagi Vodil bojxona-chegara punktidan, yana 40 kilometr Qirg‘iziston hududidan o‘tish zarur bo‘lgan. Bu, tabiiyki, Cho‘ng‘ara qishlog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.**

INSON QADRI UCHUN

YANGI QONUNNING HAYOTIY ZAVQI

O‘z uyiga egalik hissi millionlab yurtdoshlarimiz qalbiga quvonch, kelajagiga ishonch olib kirdi

Boshlanishi 1-betda

AHOLI MANFAATLARINI TA’MINLASHGA QARATILGAN MUHIM HUJJAT

Bugun respublikamizda 4 millionga yaqin uy-joyning kadastr hujjati yo‘q. Ularning aksariyati qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, sug‘oriladigan yer maydoni balansida turibdi. Tegishli hokimlik qarori bilan uy-joy uchun yer berilgan, ammo kadastr hujjati qilinmagan.

Natijada ko‘pchilik o‘zi yashab turgan uy-joyiga egalik huquqini ololmay, sarson-sargardon bo‘lib yurgandi. Aslida, o‘zboshimchalik bilan qurilgan uy-joylarda bu qadar tushunmovchilik va ziddiyatlar kelib chiqishining bir nechta sababi bor. Eng avvalo, uzoq yillar aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha yetarlicha harakat qilinmadi. Qishloq joylarda aholi uchun hamyonbop turar joy binolarini qurish masalasi e’tiborga olinmadi.

Prezidentimiz imzolagan qonun fuqarolarning muayyan sabablarga ko‘ra, qonuniy rasmiylashtirilmagan yer uchastkalariga, qurilgan uy-joylariga nisbatan huquqlarini e’tirof etish borasida anchadan buyon qiynayotgan masalalar yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Mazkur qonunda ko‘chmas mulklarga nisbatan huquqlar e’tirof etilishi belgilandi. Unga ko‘ra, 2018-yil 1-mayga qadar fuqarolarning yakka tartibdagi, uy-joy qurgan holda o‘zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga nisbatan mulkiy huquqlari e’tirof etiladi. Ushbu vaqtga qadar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko‘rsatilgan maydondan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga esa ko‘chmas mulklarga nisbatan huquqlar beriladi.

E’tiborli tomoni, qonun bilan “bir martalik aksiya” doirasida huquqlarni e’tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga (126 mingdan ortiq), ko‘chmas mulklarga nisbatan egalik huquqi ham berilmoqda.

Huquqiy hujjat bilan bir martalik yig‘imni to‘liq to‘lagan hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar ozod etilayotgani e’tiborga molik. Shuningdek, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kiritilgan shaxslardan belgilangan to‘lovning 50 foizi miqdorida undiriladi.

Qonunda qator yangiliklar o‘z aksini topgan. Xususan, unda yakka tartibdagi uy-joy qurilgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi 1998-yil 1-iyulga qadar egallangan bo‘lsa, barcha hududda 0,24 gektardan, 1998-yil

1-iyuldan 2018-yil 1-mayga qadar egallangan bo‘lsa, Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida 0,06 gektardan, qolgan hududlarda 0,12 gektardan oshmaydigan hajmda belgilangan.

Yakka tartibdagi uy-joy egallagan yer uchastkasining amaldagi maydoni yuqorida keltirilgan hajmdan ortiqcha bo‘lsa, yer uchastkasining ortiqcha egallangan qismiga tomorqa yoki dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ijara huquqi e’tirof etilishi ham yana bir muhim yangilik.

Qonunning asosiy maqsadi o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Huquqiy hujjat matnini sinchiklab o‘qir ekansiz, unda yurtdoshlarimizning xohish va istaklari, orzu va maqsadlari o‘z aksini topganiga guvoh bo‘lasiz.

Xususan, mazkur qonun bilan yer uchastkasi va unda qurilgan imoratga bo‘lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurilgan, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga ijara huquqini e’tirof etishning aniq tartiblari belgilandi. Fuqarolar tomonidan ortiqcha egallangan yer uchastkasiga, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar egallagan yer uchastkasiga ijara huquqini e’tirof etishning huquqiy asoslari belgilab berildi.

Shu bois, ushbu qonun butun xalqimiz, tadbirkorlarimiz va mulk egalari tomonidan xursandchilik bilan kutib olinmoqda. Sababi, bunday yangiliklar tadbirkorlarimiz uzoq yillar kutgan tarixiy adolatni ro‘yobga chiqaradi. Boshqacha aytganda, sohada yangi bosqichni, yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Bu orqali bir necha yuz minglab oilaga baraka kiradi, yangi ish o‘rinlari ochiladi, kambag‘allik darajasi qisqaradi.

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

> Ota sifatida shu uyni qonunan o‘g‘limning nomiga o‘tkazib berish masalasi yelkamda yuk bo‘lib turgandi. Ishqilib yaqin yillarda hal bo‘lib qolsin-da, derdim. Niyatimiz ijobat bo‘lib, mana, qonun chiqib turibdi. Ko‘z tegmasin, odamlar yaxshi yashashi uchun rahbarlarimiz harakat qilyapti.

XUDDI IJARADA YASHAYOTGANDEK EDIK

Yashayotgan uyim qariyb yetmish yil ilgari qurilgan. Lekin shuncha vaqt o‘tsa-da, kadastr hujjati yo‘q edi. Ba’zan o‘ylab qolardim: uyimiz, bolalarim, nabiralarimiz taqdiri nima bo‘ladi? Uyingiz bo‘lsa-yu, hujjati bo‘lmasa, turli xayollarga borarkansiz-da… O‘zimni xuddi kimningdir uyida ijarada o‘tirgandek his etardim.

Bundan tashqari, shu kunga qadar kadastr hujjatimiz bo‘lmagani uchun mulk solig‘ini 3 barobar ko‘p to‘lab kelardik. Qarang, bir necha o‘n yillar ana shunday xavotir va hadik, ortiqcha xarajat bilan yashadik. Buni batafsil ifodalab berishim qiyin.

Bugun esa hayajonim o‘n karra oshgan. Davlatimiz rahbarining oqilona va odilona siyosati tufayli o‘z uyimga egalik qildim. Yaqinda kadastr idorasi mutaxassislari uyimizga kelib, hujjati tayyorlanishini aytganida, to‘g‘risi, ishonmagandim. Lekin shunday bo‘ldi: oradan bir-ikki kun o‘tib, qo‘limga uyimizning kadastr hujjatlari tutqazildi. Buni juda katta quvonch bilan qabul qildik.

Kecha mahalla idorasiga chiqqandim. Mahalla raisi va boshqa faollarni uchratdim. Barchasi tabrikladi. Ularning aytishicha, yurtimizda menga o‘xshab o‘z uyiga ega bo‘ladiganlar endi juda ko‘p bo‘larkan. Bilishimcha, davlatimiz rahbari shu haqdagi qonunni imzolabdi. Qisqasi, bizga o‘xshab xursand bo‘ladiganlar 10 milliondan osharkan.

Gap-so‘zlardan angladimki, bu boradagi ishlar Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, birinchi bo‘lib Qoraqalpog‘istonda boshlanibdi. Bu ham menga o‘zgacha ta’sir qildi. Davlatimiz rahbarining bizga mehri bo‘lakcha ekanini tuydim.

Noqonuniy qurilish, deya baholab kelingan uyiga uzoq yillar davomida egalik huquqini ololmasdan necha-necha fuqarolar qiynalayotgan edi. Endi ularning qonuniy uyi bor. Ko‘ngli xotirjam. Aslida, inson manfaati ustun qo‘yilgan mamlakatda shunday bo‘lishi ham kerak.

Gulparshin ZAITOVA
Nukus tumani

YELKAMDAGI OG‘IR YUK YENGILLASHDI

Kechki ovqatdan so‘ng bir oz televizor ko‘rmoqchi bo‘layotgandim, kelinim “Dada, suyunchi bering”, deb qoldi. Shoshib nima gap ekanini so‘radim. “Hozirgina mahalla raisimiz Mavluda opa qishlog‘imizning telegram sahifasiga bir ma’lumot joylagan ekan, o‘qib chiqdim. Endi uyimizni hujjatlashtirsak bo‘larkan. Prezidentimiz shu to‘g‘ridagi hujjatni imzolabdi”, dedi. Xayriyat, ishimiz hal bo‘ladigan bo‘ldi. Kelinga rahmat aytib, ertalab tuman markaziga borib kelishni reja qildim.

Erta bilan to‘ppa-to‘g‘ri kadastr idorasiga bordim. Qabul qilganlar “Qonun uch oydan keyin kuchga kiradi. O‘shanda birinchi bo‘lib sizni chaqiramiz”, dedi. Uch oy emas, olti oy desa ham ko‘nglim to‘q bo‘lishi aniq edi. Chunki endi kichik o‘g‘limning uyi ham davlat ro‘yxatidan o‘tib, hujjatli bo‘ladi. Mana shu ishga bosh bo‘lganlarga ming rahmat. Axir birgina bizning mahallada menga o‘xshab qachondan buyon kadastr idorasiga yugurib yurganlar qancha edi.

Biz, o‘zbeklar shundaymiz: bola-chaqani uy-joyli qilmaguncha ko‘nglimiz taskin topmaydi. Uylantirgandan keyin o‘g‘illarni alohida uyli qilib, keyingisining boshini ikki qilamiz. Mol-qo‘yni sotib bo‘lsayam 5-6 sotix yer olib, uy ko‘taramiz. Ayniqsa, viloyatimizda aholi zich yashaydi, yer olish ham muammo. Hujjati bo‘lmasa ham olganimiz yutug‘imiz deb yer, tayyor uy sotib olganlar ko‘p. Menga o‘xshab, keyinchalik hujjat qilib olaman, deganlar ham kam emas.

Ikkala katta o‘g‘limning uy hujjatlari bekamu ko‘st. Faqat ozgina tomorqamiz bor. Necha yildan buyon ekin ekib foydalanib kelardik, qachondir baribir davlat olib qo‘yadida, degan xavotir bor edi. Shu tomorqamiz ham qonunan o‘zimizniki bo‘lib qolar ekan. Nihoyatda suyunib ketdim. Nega desangiz, tavakkal qilib mevali ko‘chatlar ham ekib qo‘ygan edik-da. Ular ayni mevaga kirdi. Bolachaqa yegisi kelganida, yugurib chiqib terib keladi.

Kenja o‘g‘limning uyi ham 2018-yilgacha qurilgan uy-joylar ro‘yxatida ekan. Yaqinda soliqdan, boshqa kommunal to‘lovlardan qarzdorliklarni yopgandik. Uch oygacha bizga o‘xshab kadastr hujjati qila olmay yurganlarga tushuntirish ishlari olib borilar ekan. Yangi qonun bilan uch mil-liondan ortiq yer uchastkasiga hujjat berilarkan. Uch oy ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketadi. Hali aytganimdek, eng muhimi ko‘ngil to‘q.

Ota sifatida shu uyni qonunan o‘g‘limning nomiga o‘tkazib berish masalasi yelkamda yuk bo‘lib turgandi. Ishqilib yaqin yillarda hal bo‘lib qolsin-da, derdim. Niyatimiz ijobat bo‘lib, mana, qonun chiqib turibdi. Ko‘z tegmasin, odamlar yaxshi yashashi uchun rahbarlarimiz harakat qilyapti. Avvalgi ovoragarchiliklar sekin-sekin yo‘qolib boryapti. Shuning uchun yurtga tinchlik tilab, to‘kinlikka shukrona aytib yuraveraylik, ilohim!

Rahimjon MO‘MINOV
Qo‘rg‘ontepa tumani

NIHOYAT UYIMIZ O‘ZIMIZNIKI BO‘LADI

Har bir kishining hayotdagi asosiy maqsadlaridan biri, albatta, oila qurib, o‘z uyi¬da xotirjam yashab, farzandlarining baxtu saodatini ko‘rishdir.

Navoiy shahridagi tashkilotlardan biriga ishga joylashganimdan keyin olis Xatirchi tumanidan qatnab ishlashning imkoni yo‘q edi. Shu bois, shaharning o‘zida ijaraga uy olib, yashay boshladik. Yosh oilamiz, bir farzandimiz bor.

Bir-ikki yildan keyin, aniqrog‘i, 2015-yilda shaharga yaqin joydan uy olish harakatiga tushdik. Bir oz jamg‘armamiz bor edi. Ota-onam, aka-ukalarim ham imkon boricha ko‘mak berishini aytgandan keyin bunga jiddiy kirishdim.

Shahardagi ko‘p qavatli uylar qimmatlik qildi. Shunday kunlarning birida tanishim Karmana tumanidagi bir fermer xo‘jaligi uy-joy qurish uchun fuqarolarga yer sotayotganini aytib qoldi. Shaharga ham uzoq emas. Bordik, gaplashdik va 6 sotix quruq yer sotib oldim. Yerni sotgan fermer keyinchalik yerni hujjatlashtirib berishini va uy qurilgandan keyin kadastr hujjatlari qilinishini aytdi.

Endi uy-joy qurish uchun o‘z yerim bor, deb erta xursand bo‘lganimni keyin angladim. Yerni olgandan keyin qurilishni boshladik. Yaqinlarimiz ham ko‘mak berdi. Bir yilda qurilishni yakunlab, bir-ikki xonasini ta’mirlab ko‘chib chiqdik.

Shundan keyin muammo boshlandi. Uyga kadastr hujjatlarini tayyorlashga kirishganimizda yer noqonuniy egallab olingan, degan vaj bilan barcha eshik yopildi. Sarson-sargardon yugur-yugurlar bekor ketdi. Men bilan birga yer sotib olgan boshqa qo‘shnilar ham shu muammo girdobida qoldi.

Hali bu ko‘rgiliklar holva ekan. Noqonuniy egallangan yer va noqonuniy turar joy masalasida suddan qog‘oz kelganda umuman, halovatimiz qolmadi. Yugur-yugurlar sillamizni quritdi. Bir tomondan shuncha mehnat, shuncha xarajat alami, ikkinchi tomondan esa o‘z qo‘limiz bilan qurgan uyimizning buzilish xavfi qiynardi.

Bir-ikki yildan keyin Prezidentimiz qarori bilan bir martalik aksiya e’lon qilinganda yuragimizda umid uchquni paydo bo‘lgan edi. Afsuski, belgilangan muddatda hujjatni to‘g‘rilashning imkoni bo‘lmadi. Ulgurmadik.

Ne-ne mashaqqatlar bilan qurgan uyimizda bemalol yasholmadik. Oilada halovat yo‘q, bu tashvish bilan ishingiz ham oldinga siljimaydi. Noiloj yana shahardan ijaraga uy olib ko‘chib chiqdik. O‘zimiz qurgan uyimiz endi buzilishi aniq, degan xayolda taqdirga tan bergan edim. Hanuzgacha arosatda edik.

Kechagina Prezidentimiz “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshoot¬larga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonunni imzolaganini o‘qib, qanchalik xursandligimni so‘z bilan ta’riflab berolmayman.

Qonunda 2018-yil 1-maygacha yakka tartibdagi uy-joy qurib o‘zboshimchalik bilan egallagan yer hamda undagi bino va inshootlarga egalik huquqi berish belgilangan ekan. Bu bizdek arosatda qolgan fuqarolar uchun katta imkoniyat. Axir necha yillardan buyon qanday azob, ovoragarchiliklarni boshimdan o‘tkazganim o‘zimga, oilam va yaqinlarimga ayon.

Jonibek NARZIYEV
Karmana tumani

> Ne-ne mashaqqatlar bilan qurgan uyimizda bemalol yasholmadik. Oilada halovat yo‘q, bu tashvish bilan ishingiz ham oldinga siljimaydi. Noiloj yana shahardan ijaraga uy olib ko‘chib chiqdik. O‘zimiz qurgan uyimiz endi buzilishi aniq, degan xayolda taqdirga tan bergan edim. Hanuzgacha arosatda edik.

QONUN TARG‘IBOTIGA KIRISHDIK

Prezidentimiz imzolagan yangi qonun bir necha yuz minglab oilalarga quvonch, shodlik olib keldi, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki yer olib, mulkiy huquqini qo‘lga kirita olmay, sarson bo‘layotgan ko‘plab oila borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Rishton tumanida huquqiy hujjati yo‘q yoki to‘liq bo‘lmagan 27 mingdan ortiq obyekt mavjud. Qonun bu boradagi masalalar yechimida katta ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 20 mingdan ortiq fuqaro uy-joy, bino va inshootga huquqiy egalikni qo‘lga kiritadi. O‘z uy-joyini qonuniy rasmiylashtirib, boshqa shaxsga sotish, oila a’zolarini doimiy ro‘yxatga qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Mulkdorlar endi uyini ta’mirlash yoki qo‘shimcha qurilish qilish uchun imtiyozli kreditlar olishi mumkin, uy-joyi jamoat ehtiyoji uchun olib qo‘yilgan hollarda, qonunga muvofiq kompensatsiya talab qila oladi.

Qonunda huquqlarni e’tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo‘lishi, yer bo‘yicha nizo bo‘lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi kabi ko‘plab omillar hisobga olingan. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga taalluqli ma’lumot hamda hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilishi bu boradagi masalalarni shaffof va xolis hal etish imkoniyatini beradi.

Ayni kunda tumanimizdagi 71 ta mahalla fuqarolar yig‘inida mazkur qonunning ahamiyati yuzasidan targ‘ibot tadbirlariga kirishdik.

Baxtiyorjon DADAJONOV,
Davlat kadastrlari palatasi Rishton tumani filiali rahbari

“Billing tizimi” ko‘plab sohada uchraydigan atama bo‘lib, energetika sohasida iste’molchilarga yetkazib beriladigan elektr energiyasi hisobini yurituvchi zamonaviy dasturiy ta’minotni nazarda tutadi. Uning eng muhim jihatlaridan biri ta’minotchi korxona va iste’molchilar o‘rtasidagi shaffoflikni ta’minlash, axborotni aniq yetkazishga xizmat qilishida. Bundan tashqari, barcha to‘lov, hisoblagich ko‘rsatkichi tarixini yuritadi va hisob-kitoblarini amalga oshiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 8-avgust, 158-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Kun mavzusi

ELEKTR ENERGIYASI: YANGILANGAN BILLING TIZIMI ISHGA TUSHIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Joriy yildan boshlab esa dasturning sinov va texnik ishlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bu davrda barcha ma’lumot eski tizimdan yangi tizimga ko‘chirib o‘tkazildi va nihoyat uni amaliyotga to‘liq joriy etyapmiz. Umuman, sohada yangilangan billing tizimiga ehtiyoj yuzaga kelgandi.

Yildan yilga iste’molchilar soni va yurtimizdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari ko‘lami ortishi asosiy omillardan. Masalan, eski dastur joriy qilingan vaqtda yurtimiz bo‘yicha jami iste’molchilar soni 5,5 millionta bo‘lgan, hozir esa 8 millionga yetdi. O‘z-o‘zidan eski tizimga texnik bosim ortib, faoliyatida muammolar kuzatila boshladi.

Pilot loyihaning sinov amaliyoti uchun Toshkent shahrining Yakkasaroy tumani tanlab olindi. Shu yil avvalida yangilangan tizimning tayyor bo‘lgan qismi hududda sinovdan o‘tkazildi. Tumandagi qariyb 40 mingga yaqin elektr energiyasi

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

iste’molchisining barcha ma’lumoti “HET Billing” dasturiy ta’minotiga ko‘chirib o‘tkazildi. Sinov ishlari muvaffaqiyatli kechishi yangi tizimning mamlakatimiz bo‘ylab joriy etilishini ham jadallashtirdi.

Shu yilning 1-5-avgust kunlari “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ elektr energiyasi bo‘yicha onlayn to‘lovlarni amalga oshirish hamda shaxsiy hisobraqamdagi ma’lumotlarni olishda texnik uzilishlar bo‘lishi haqida iste’molchilarni ogohlantirdi. Gap shundaki, bu davrda yangi billing tizimini ishga tushirish bo‘yicha texnik ishlar bajarildi. Profilaktik tadbir yakuniga yetgach, yurtimiz bo‘ylab yangilangan “HET Billing” dasturiy kompleksi ishga tushirila boshlandi.

Yangi dasturni qo‘llash bevosita “aqlli” hisoblagichlar bilan bog‘liq. Shu bois, tizim ishga tushirilishidan avval yurtimizdagi mavjud elektr energiyasi iste’molchilarini “aqlli” hisoblagichlar bilan ta’minlash ko‘rsatkichi 100 foizga yetkazildi. Ammo bu nisbiy raqam bo‘lib, mutaxassislarning ta’kidlashicha, mamlakatda to‘liq shunday hisoblagichlar o‘rnatildi, deb bo‘lmaydi. Boisi, aholi, uy-joy qurilishi, ishlab chiqarish va boshqalar soni ortishi hisobiga yillik o‘sish 2 foizni tashkil etadi. Demak, “aqlli” hisoblagichlar bilan ta’minlash ham davom etuvchi jarayon.

Ma’lumotlarni olish yanada qulaylashdi

“Billing tizimi” ko‘plab sohada uchraydigan atama bo‘lib, energetika sohasida iste’molchilarga yetkazib beriladigan elektr energiyasi hisobini yurituvchi zamonaviy dasturiy ta’minotni nazarda tutadi. Uning eng muhim jihatlaridan biri ta’minotchi korxona va iste’molchilar o‘rtasidagi shaffoflikni ta’minlash, axborotni aniq yetkazishga xizmat qilishida. Bundan tashqari, barcha to‘lov, hisoblagich ko‘rsatkichi tarixini yuritadi va hisob-kitoblarini amalga oshiradi.

Mutasaddilar yurtimizda joriy etilgan yangi “HET Billing” dasturiy ta’minoti mutlaqo boshqa billing ekani, avvalgisiga nisbatan ancha-muncha qulayliklarga egaligini ta’kidlamoqda.

— Eski tizimda cheklangan ma’lumotlar, xususan, abonentning ism-familiyasi, pasport ma’lumotlari hamda hisobraqami bo‘lgan bo‘lsa, yangi billing tizimida iste’molchilarning kadastr ma’lumotlaridan tortib, barcha hisobraqami hamda boshqa ko‘plab ma’lumotlari mavjud, — deydi Diyorbek Nishonov. — Dastur eng zamonaviy server qurilmalar bilan jihozlanib, ishlash va ma’lumot olish imkoniyati yanada kengaytirildi. Ham tizim xodimlari, ham foydalanuvchilar uchun foydalanishda qo‘shimcha qulayliklar yaratildi. Masalan, abonent bevosita o‘zi iste’mol qilgan elektr energiyasi hisobi, xususan, to‘lov ma’lumotlari, kunlik elektr energiyasi iste’moli va boshqa har qanday ma’lumotni onlayn tarzda kuzatib borishi mumkin.

Bu imkoniyatlarning bir qismi avval ham bo‘lgan, ammo ma’lumotlarni olish uchun mobil ilova mavjud emasdi. Yangilangan tizim bilan birga, mobil ilova ham ishga tushirildi. Uni istalgan kishi mobil qurilmasi orqali yuklab olishi mumkin. Mavjud shaxsiy kabinet ham yanada takomillashtirilgan. Koll markazlarda esa qayta aloqa tizimi ishga tushirildi.

Endi yurtimiz aholisi elektr energiyasi iste’moli va to‘lovlari borasidagi barcha ma’lumotni yangilangan tartib hamda eng zamonaviy shaklda ola boshlaydi.

Qaror va ijro

BILIMLI, HUNARI BOR VA TIL BILGAN KISHI HAR JOYDA QADRLI

yoxud tashqi mehnat migratsiyasida yuzaga kelayotgan muammolar ildizi qayerdan boshlanadi?

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida joriy yil 8-aprelda Prezidentimizning “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingandi.

Hujjatda xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni aniqlash, ular bilan manzilli ishlash, ketishdan oldingi tayyorlash tadbirlarini soddalashtirish, moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha yangi instrumentlarni joriy qilish, mehnat migratsiyasi geografiyasini kengaytirishga doir aniq vazifalar belgilangan.

Xo‘sh, mana, oradan to‘rt oy o‘tyapti. Bugun ushbu hujjatda belgilangan vazifalar amaliyotga joriy etildimi, natijasi qanday bo‘lyapti?

Izlagan imkon topadi

Chet elga borib ishlashni maqsad qilgan aksariyat yurtdoshlarimiz bir necha yil oldin qaysi tashkilotga murojaat qilishni yoki qanday ketishni bilmas edi. Aniqrog‘i, bu tanlovda ko‘p qiynalishar va ko‘pincha aldanib ham qolardi. Qaror asosida “Xorijga ish — mahalladan” tamoyili yo‘lga qo‘yilgani barcha tashqi migratsiya ishtirokchilari uchun ayni muddao bo‘ldi. Bu tamoyilga ko‘ra, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqaroni aniqlab, “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Nomzodlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ko‘magida xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb ¬qilinadi.

— Yurtimiz mehnat bozoriga xorijiy davlat tashkilotlari qiziqish bildirsa, biz, eng avvalo, o‘sha tashkilotning holatini o‘rganib chiqamiz. U qanday faoliyat yuritadi: qonuniymi yoki noqonuniy, yurtdoshlarimiz u yerga borib ishlay oladimi? Shu kabi masalalarga oydinlik kiritish uchun o‘sha davlatlarning Tashqi ishlar vazirligi va boshqa davlat tashkilotlari bilan bog‘lanib yoki o‘zimiz borib, yosh, til, tajriba, diplom bilan bog‘liq talablarini o‘rganib chiqamiz, — deydi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi mutaxassisi Bunyod Yo‘ldoshev. — Agar o‘rganishlar natijasi ijobiy bo‘lsa, hamkorlik uchun kerakli hujjatlarni taqdim etamiz. Ular

bilan kelishib, talabnomani olganimizdan so‘ng o‘zimizning rasmiy kanalimizda e’lon beramiz.

Tashqi mehnat migratsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning 6 oyi davomida mahallalardagi hokim yordamchilari bilan hamkorlikda 64 mingga yaqin fuqaroning xorijiy davlatlarda tashkiliy va manzilli tartibda ishga joylashishiga ko‘maklashilgan.

Bir qaraganda bu raqam oddiy hisobotdek ko‘rinadi. Ammo masalaning boshqa jihati ham bor. 64 ming insonning ish bilan ta’minlanishi ortidan, avvalo, uning oilasi, ro‘zg‘ori butligi ta’minlanadi, kelajakka ishonchi ortadi.

— Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi kanalida O‘zbekiston fuqarolari uchun Buyuk Britaniya qishloq xo‘jaligi ishlariga ishga qabul qilish haqidagi e’lonni ko‘rib qoldim, — deydi bugungi kunda ushbu davlatning Chichister shahridagi “Groves” fermasida ishlayotgan xorazmlik Dilmurod aka. — So‘ng ro‘yxatdan o‘tdim. Suhbat va boshqa tashkiliy ishlardan keyin bu yerga keldik. Oyiga o‘rtacha 1500-2000 ming dollar topsak bo‘ladi. Bizga barcha sharoitlar yaratilgan. Izlagan imkon topadi, deganidek, hech bir ortiqcha xarajatsiz shu yerda rizqimizni terib yuribmiz.

Bizning zamindan qanchadan-qancha jahongashta insonlar, dunyo tamadduniga asos solgan buyuklar yetishib chiqqan. Bugungi kunda ham ular qoldirgan boqiy meros qaysidir sohalar rivojiga asos bo‘lmoqda. Ularning bu yuksakligiga ma’naviy to‘qlik sabab bo‘lgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ma’naviy to‘qlikning asosi iqtisodiy jihatdan barqaror to‘kinlikka erishganlik bilan belgilanadi.

Yurt bor ekan, uning tuprog‘i, vatani uchun jon olib, jon beradigan avlodlar, albatta, shakllanadi. Ammo bir masalani unutmasligimiz kerak. Biz qachon ma’naviy to‘qlik, ma’rifiy yuksaklikka erishamiz? Qachonki yurt otalarining tashvishi tirikchilik bilan chegaralanib qolmasa, farzandlarini boqa olmaslik fojiasidan qutulsa.

Barcha jamiyatlarning gullab-yashnashiga birgina sabab bor, menimcha. Inson bu dunyo tashvishlaridan ortib, o‘zidan balandni ham ko‘ra olish darajasiga yetsa, ya’ni teran fikrlaydigan, tafakkuri keng insonlar nisbatan ko‘p bo‘lsa. Butun umrini moddiylikka va tirikchilikka bag‘ish-lagan insonlardan ma’naviy yuksaklikni kutish qiyin masala.

Endi esa ko‘z oldingizga 64 ming yurtdoshimizning yaxshi daromadga ega bo‘lishi ortidan ularning qaramog‘idagi minglab insonlarni keltiring. Mana shu o‘zgarishlardan ularning taqdiri, yashash tarzi, maqsadlari o‘zgarmaydimi? Albatta, o‘zgaradi. Birgina o‘z vaqtida qabul qilingan qaror, to‘g‘ri yo‘naltirish jarayoni bitta insonning emas, balki minglab insonlarning yashash tarziga ta’sir qiladi.

Muhimi — to‘g‘ri qaror

Novvoy ham, geolog ham, cho‘pondan tortib, o‘zga yurtda ishlab, halol pul topayotgan inson ham qaysidir ma’noda yurt taqdiriga daxldor. Binobarin, farzandlar otasi topgan pul ortidan ilm egallasa, xalqqa xizmat qiladigan avlod bo‘lsa, o‘sha insonning vazifasi bajariladi.

Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi devor har qancha zaiflashmasin, hech kim boshqalarga o‘z-o‘zidan yordam qo‘lini cho‘zmaydi. Har bir davlatning kelajagi faqat o‘sha davlatning fuqarolariga bog‘liq hodisadir. Buning uchun esa har kim ilm olishi, kasb-kamol ortidan jamiyatga foyda keltirishi lozim.

Ming afsuski, keyingi vaqtlarda qisqa fursatda katta daromadga erishish, yengil-yelpilik bilan yaxshi hayot tarzini kutayotgan insonlar ham topilyapti, hatto bundaylar kam emas. Ayniqsa, bu yoshlar orasida urchigan.

Ko‘cha-ko‘yda yurganimda odamlarning o‘y-fikrlari bilan qiziqaman. Har holda, qog‘ozdagi qaror yoki hisobotlar emas, balki odamlarning dunyoqarashi, o‘y-fikrlaridan kelib chiqib, bugungi jamiyatga, unda kechayotgan o‘zgarishlarga odilona baho bersa bo‘ladi.

Kimlarningdir gapiga ishonib, o‘zga yurtga ketib, ba’zan chegarada, ba’zan ichkarida qo‘lga tushib ortga qaytgan insonlar taqdiri quloqqa chalinadi.

Xo‘sh, bugun bu kabi holatlarga tushmaslik uchun qanday yo‘l tutgan ma’qul, kimga murojaat qilish kerak?

Sir emas, ba’zi davlatlarda ishlayotgan fuqarolarimizga past nazar bilan qaraladi. Chunki ularning aksariyati malaka talab etmaydigan “qora” ishlarda mehnat qiladi. Endi ularni mehnati og‘iru, daromadi past ishlarga emas, balki yuqori daromadli va xavfsiz mehnat sharoitiga ega ishlarga tayyor mutaxassis sifatida yuborishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 2024-yilning dastlabki 6 oyi davomida Germaniya, Turkiya, Bolgariya, Belarus, Rossiya, Latviya, Serbiya, Slovakiya, Saudiya Arabistoni, Litva, Xorvatiya, Vengriya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo‘yicha

48 ta shartnoma imzolanishiga erishildi. Shunday qilib, jami kelishuvlar soni 300 tadan oshgan. Albatta, bu shartnomalar qog‘ozda emas, balki amalda ham o‘zini oqlayapti.

Til — dunyoga chiqish kaliti

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish doirasida 2 mingta xorijiy kompaniya bilan kasbga o‘qitish va ish bilan ta’minlash tizimini tashkil etish vazifasi belgilangan.

Shu maqsadda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan Shveytsariyaning “Globogate”, Germaniyaning “Nova Agency”, “Technoconsult”, “CBZ Munchen” markazlari bilan hamkorlikda nemis tiliga o‘qitish kurslari, Yaponiyaning “Nippon Educational Academy” kompaniyasi, “AOIKAI Yaponiya”, “Yume” markazlari bilan hamkorlikda yapon tili, madaniyati va mehmonxona xizmatiga o‘qitish kurslari, Janubiy Koreyaning “Qirol Sejong” markazi bilan hamkorlikda koreys tili va madaniyatiga o‘qitish kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarga qariyb 5200 fuqaro jalb qilindi.

Umuman olganda, yil boshidan xorijda ishlash istagida bo‘lgan 32 mingga yaqin fuqaro turli kasblar va chet tillarga o‘qishga jalb qilindi.

Aksariyat yurtdoshlarimiz xorijga vaqtinchalik ish bilan ketmoqda. Ular yurtga qaytgandan so‘ng turmush tarzini qayta yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun davlat tomonidan ko‘mak berish ham belgilab qo‘yilgan. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan, bandligini ta’minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan.

Shundan kelib chiqib, “Sayxunobod tajribasi” asosida ularni tomorqa xo‘jaligida band qilish, urug‘lik, ko‘chat ekish uchun subsidiya berish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, mahallalarga biriktirilgan banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a’zolari bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilyapti.

“Inson” markazlari tomonidan esa ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi. Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqaroni ishga olgan korxonaga Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan bir yil davomida oyiga 500 ming so‘mdan subsidiya beriladi.

Shu bilan birga, xorijdagi hamyurtlarimizni qo‘llab-quvvatlash tizimi bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shu yilning birinchi yarim yilligi davomida 132 mingdan ortiq fuqaroga axborot va maslahat xizmati, 3,1 ming nafariga huquqiy, 2,9 ming nafariga ijtimoiy, 1,7 ming nafariga moddiy yordamlar ko‘rsatildi.

Shuningdek, 108 mehnat migranti xorijiy davlatlarda bir martalik yashash joylariga joylashtirildi, og‘ir vaziyatlarga tushib qolgan 444 yurtdoshimiz esa O‘zbekistonga olib kelindi.

Agentlikning xorijdagi vakolatxonalari aralashuvi bilan yurtdoshlarimizga ish beruvchilardan 377 ming dollarga yaqin ish haqlari undirib berildi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun xorijda ishlash istagida bo‘lgan yurtdoshlarimizning huquqlari o‘sha davlat hududida ham himoya qilinmoqda. Bu o‘z-o‘zidan jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Startap muayyan bozorda yangi, hali u darajada sinalmagan biznes g‘oyadir. An’anaviy biznesdan farqli ravishda bu turdagi biznesning muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi noma’lum. Bu g‘oya ish beradimi-yo‘qmi? Foydasi yoki zarari qanday? Buni oldindan bilish mushkul.

Tahlil

STARTAPLAR ZANJIRI

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING MUHIM BO‘LAGIGA AYLANADI

Boshlanishi 1-betda

Turli mamlakatlarda startap ekotizimining rivojlanish darajasini baholash qiyin. Barcha omilni hisobga oladigan yagona, umumiy qabul qilingan indeks mavjud emas.

Xitoy jahon startap ekotizimining yirik investitsiyalarni jalb qiluvchi muhim markaziga aylanib bormoqda. Startaplar tufayli AQSHda yiliga 2 million, Xitoyda 10 millionga yaqin yangi ish o‘rni ochildi.

Startaplarni tijoriylashtirish uchun investitsiyalarni jalb etish, moliyalashtirish, ishlanmalarni tanlash, xalqaro ko‘rgazmalar tashkil etish borasida salmoqli ishlar bajarilayotgani e’tiborga molik. Ammo bugun mamlakatimizda to‘laqonli biznesga aylana olgan startaplar ishlab chiq ilishi uchun yana nimalarga e’tibor qaratish zarur?

Azizbek ILHOMOV,
Innovatsion rivojlanish agentligi startap ekotizimini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i:

— Mamlakatimizda ijodiy mehnat, innovatsion loyiha — startaplarga e’tibor katta. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy ay-ti habga aylantirish, jumladan, startap loyihalarni ay-ti parkning akseleratsiya dasturi orqali qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan milliy bozor kapitallashuvini

1 milliard dollarga teng birinchi (Unicorn) startap loyihani chiqarish vazifasi belgilangan. Bu borada zimmamizda mas’uliyatli vazifalar turibdi.

Unicorn daromadi bir milliard dollarga yetgan loyihadir. Hozir O‘zbekistonda bitta shunday loyiha bor — “UZUM”. Bu katta loyiha, mega ilova bo‘lgani uchun qiymati bir milliardga dollarga — “Unicorn” darajasiga chiqdi va chet ellik investorlarni jalb qila oldi.

2023-yilda StartupBlink tashkilotining “Global Startup Ecosystems Index-2023 (GSEI-2023)” indeks reytingida Toshkent shahri startap ekotizimi 165 pog‘ona ko‘tarilib (kuchli shaharlar mingtaligida 580-o‘rinda) eng tez rivojlanayotgan 8 ta shahar qatoridan o‘rin olgan.

Bu natijaga o‘zidan o‘zi erishilgani yo‘q, albatta. 2019-2023-yillarda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etilgan turli tanlovlar doirasida axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim, oziq-ovqat, qurilish hamda transport va energetika sohalariga oid jami qiymati 127,5 milliard so‘mlik

162 ta startap loyiha moliyalashtirilgan. Jumladan, jami qiymati 48,6 milliard so‘mlik 62 ta startap loyiha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga taalluqli. Barcha startap loyihalarni amalga oshirish natijasida 73 milliard so‘m daromadga erishildi va 1248 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Ammo bu yetarli emas.

Investitsiyalarni jalb qilishda nima xalal beradi?

To‘g‘ri, startapchilarning o‘zi ham inves¬torlarni jalb qilishi mumkin. Ammo bu o‘rinda biznes “farishta”lar, venchur fondlarining o‘rni alohida. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan startap loyihalarni moliyalashtirish tizimi butkul yangilanyapti.

Besh yillik faoliyat davomida startap loyihalarni shakllantirish va moliyalashtirishning amaldagi tizimi bugunning talabi darajasida emas va mazkur tizimni xalqaro talablarga moslashtirish zarur.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan startap loyihalarni saralash bosqichini to‘liq biznes akselerator va inkubator dasturlaridan o‘tkazish tizimini joriy qilish orqali startap loyiha egasi avval tegishli dasturlarda kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgandan so‘ng loyiha takomillashgan holda moliyalashtiriladi hamda akseleratsiya dasturini o‘tkazgan kompaniya bu loyihani bir yil davomida mentorlik, trekerlik xizmatlarini ko‘rsatgan holda qo‘llab-quvvatlab turadi.

Yangi tizim asosida agentlik tomonidan loyihalar boshlang‘ich moliyalashtirilishi natijasida ular faoliyati mukammal yo‘lga qo‘yilib, kelgusida investorlarga investitsiya kiritish uchun zamin yaratib beriladi.

Temur XO‘JAMURODOV,
IMAN Holding kompaniyasi PR/GR bo‘limi boshlig‘i:

— O‘zbekiston iqtisodiyotiga startaplar keltiradigan qiymat qanday, degan savol tug‘iladi. Startaplar innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish orqali texnologik rivojlanishga hissa qo‘shadi. Pirovardida umumiy iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Yangi ish o‘rinlari yaratish orqali ishsizlik darajasini kamaytiradi.

Muvaffaqiyatli startaplar xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qiladi. Bu mablag‘lar yangi loyihalarga sarflanadi va iqtisodiyotga kiritiladi. Yangi g‘oyalar va texnologiyalar bilan bozorga kirib, raqobatni oshiradi. Shuningdek, mahsulot va xizmatlar sifatini ko‘taradi, narxlarni pasaytiradi. Xalqaro bozorga chiqib, O‘zbekiston mahsuloti va xizmatlarini eksport qilish imkoniyatini ko‘paytiradi. Milliy iqtisodiyotga qo‘shimcha daromad keltiradi.

Startaplar ekotizimining rivojlanishi orqali ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida hamkorlik kuchayadi. Natijada uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor barpo bo‘ladi. Umuman olganda, startaplar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va ravnaqi uchun muhim.

Dunyoda startap ekotizimi juda yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlari, masalan, AQSHdagi Silikon vodiysi, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlar startap-lar uchun global markazlarga aylangan. Bu davlatlar kuchli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, rivojlangan texnologik infratuzilma va innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi huquqiy muhit taklif etadi. Ko‘plab muvaffaqiyatli startaplar, jumladan, Google, Facebook, Alibaba va boshqalar aynan shu joylarda tashkil topgan.

O‘zbekistonda startap ekotizimi hali rivojlanish bosqichida. Mamlakatimizda ay-ti park va boshqa innovatsion markazlar orqali startaplar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlov va startaplarni rag‘batlantirish bo‘yicha dasturlar joriy etilmoqda. Ammo hali ham ko‘plab to‘siqlar mavjud. Misol uchun, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi. Startaplar uchun kerakli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yetarli darajada emas.

Venchur kapitali va investorlar kamligi sababli ko‘plab startaplarni moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Tajribali mutaxassislar yetishmovchiligini ham istisno qila olmaymiz. Mahalliy mutaxassislarning tajribasi va malakasi xalqaro darajada raqobatlashish uchun yetarli emas. Iqtidorlilarni jalb qilish va kamol toptirishda qiyinchiliklar mavjud.

Yurtimizda tadbirkorlik madaniyati hali ham rivojlanmoqda. Yoshlar va tadbirkorlar o‘rtasida startaplar va innovatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha madaniyatni shakllantirish zarur.

Bizda startap ekotizimini rivojlantirish uchun yuqorida ko‘rsatilgan bo‘shliqlarni to‘ldirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar jalb qilish va iqtidorlilarni shakllantirish orqali startaplar uchun qulay muhit yaratish imkoni bor.

Aslida, o‘zbek startaplari jahon miqyosida rivojlanmoqda va bu yo‘lda katta yutuqlarga erishmoqda. Dunyo bo‘ylab yirik investitsiya fondlaridan salmoqli miqdorda mablag‘ jalb qilinishi orqali O‘zbekiston iqtisodiyotiga hamda o‘zbek startaplarining ko‘tarilishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Har bir yangilik va innovatsiya qo‘llab-quvvatlansa va moliyaviy rag‘bat topsagina rivojlanadi. Yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va rivojlantirish uchun bir necha omil muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun mablag‘ zarur. Venchur kapitali, xususiy investitsiyalar, davlat grantlari va boshqa moliyaviy resurslar startaplar va yangiliklarni rivojlantirishda muhim.

Ikkinchidan, texnik va maslahat yordami: innovatsiyalarni amalga oshirishda texnik ko‘mak va maslahat xizmatlari zarur. Malakali mutaxassislar, texnologik infratuzilma va biznes-inkubatorlar yangiliklarni muvaffaqiyatli rivojlantirishda katta yordam beradi.

Uchinchidan, rag‘batlantiruvchi siyosat: hukumat tomonidan yangiliklarni rag‘batlantiruvchi siyosat va qonunchilik mavjudligi muhim omil. Soliq imtiyozi, grant va subsidiyalar kabi rag‘batlantiruvchi choralar startaplarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, bozor imkoniyatlari: innovatsiyalarni amalga oshirish uchun keng bozor imkoniyati zarur. Mahsulot va xizmatlarni bozorda muvaffaqiyatli sotish va ulardan foydalanish imkoniyati startaplar uchun katta ahamiyatga ega.

Beshinchidan, hamkorlik va tarmoqlar: innovatsion loyihalarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlik va tarmoqlar bilan bog‘lanish juda muhim. Bu orqali yangi bilim va tajribalar o‘rganish hamda ulardan foydalanish imkoniyati oshadi.

Kelajakda “startaplar fronti”da ko‘plab o‘zgarishlar kutilmoqda. Masalan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida tez-tez o‘zgarishlar bo‘ladi. Yangi texnologiyalar, ishonchli kompaniyalar yaratish uchun imkoniyatlar yuzaga keladi.

O‘zbekistonda halol moliyaviy xizmatlarni taklif etadigan startaplar o‘zaro raqobatlashishi, mijozlar halol moliyaviy xizmatlardan ko‘proq foydalanishi kutilmoqda.

Akmal BAHRONOV,
“UYSOT TEAM” MCHJ rahbari:

— Startap muayyan bozorda yangi, hali u darajada sinalmagan biznes g‘oyadir. An’anaviy biznesdan farqli ravishda bu turdagi biznesning muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi noma’lum. Bu g‘oya ish beradimi-yo‘qmi? Foydasi yoki zarari qanday? Buni oldindan bilish mushkul. Biznes jarayoni nostandart, ya’ni stereotiplarni sindiradigan g‘oyalar asosida bo‘ladi. Startapning muhim xususiyatlaridan biri ko‘lamli biznes bo‘lishi va karrasiga o‘sadigan darajaga chiqishi kerak. Oddiy bizneslarda esa bu xavf kamroq bo‘ladi va ular sekinlik bilan rivojlanadi.

Bu tushuncha dastlab AQSHning Silikon — Kremniy vodiysida shakllangan. U yerda amalga oshirilgan loyihalar dunyo iqtisodiyotida juda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, Amazon, Facebook, Google — bular bir vaqtlar startap kompaniyalar bo‘lgan. Demak, mamlakat iqtisodiyoti uchun startapning o‘rni alohida. U iqtisodiyotni keskin rivojlantirishi va davlatni mashhur qilishi, investitsiya jalb etishi, eksport imkoniyatini keskin oshirishi mumkin.

Nega O‘zbekistondagi startaplar jahon arenalariga chiqmayapti? Buning bir qancha sababi bor. Men kuzatgan sabablardan biri bizda “startap” atamasi qo‘llanayotganiga hali uncha ko‘p vaqt bo‘lmadi. An’anaviy biznes rivoji uchun sharoit bor. Ammo tavakkal biznesning natijasi noma’lum bo‘lgani uchun qiziqish kamroq. Har qanday startap rivojlanishi uchun yaxshi muhit bo‘lishi kerak. Startapni startap qiladigan g‘oya hammada ham bor. Lekin uni boshlashda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ilm berish nuqtayi nazaridan bizda natijalar past. Misol uchun, banklar startap uchun kredit ajratmaydi. Chunki natijasi noma’lum, xatari yuqori. Tadbirkorlarning esa startaplarga qiziqishi kuchli emas. Ular ko‘proq sinalgan biznesga pul tikadi. Bu borada bilim ham yetarli, deb aytolmayman. Startaplarni o‘qitib, o‘rgatib, biznesini rivojlantirishga undaydigan markaz yo‘q. O‘zim bir necha yildan beri startap sohasidaman. Kuchli akseleratorlarga ehtiyoj bor. Birinchi navbatda, kovorking, netvorkingni kuchaytirishga harakat qilishimiz zarur. Bundan tashqari, sohada kuchli ustoz bilan maqsadga osonroq yetish mumkin. Akseleratorlar, inkubatorlar, venchur fondlarni ko‘paytirishimiz kerak. Ilm beradigan va rivojlantiradigan kovorking, biznes-akselerator va moliyaviy qo‘llab-quvvatlov bo‘lsagina startaplar rivojlanadi.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalariga katta e’tibor qaratilayotgani natijasida har xil startaplar yuzaga chiqyapti. Venchur fondlari ham asta-sekin shakllanyapti. Xohlaymizmi-yo‘qmi, erta-indin baribir startap ekotizimiga o‘tamiz. Chunki bizning bozorimiz — rivojlanayotgan bozor.

Men yuritayotgan startapning asosiy mohiyati qurilish industriyasini raqamli transformatsiya qilish orqali aholiga arzon uylar xarid qilishda ko‘maklashishdan iborat. Hozir 100 ga yaqin qurilish kompaniyasining biznesini raqamlashtirishga yordam berdik. Natijada savdoning yaxshilanishi, biznesning shaffoflashishi va onlayn bozorimiz orqali aholiga qulaylik yaratish, uydan chiqmagan holda talablarga mos keladigan xonadonlarni osonroq, tezroq topishga yordam beryapmiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

Dil izhori

“QUVVATNI HAM, ILHOMNI HAM SHU VATANDAN OLAMAN!”

O‘zbekiston jahon miqyosida bag‘rikeng yurt deya e’tirof etilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Yillar mobaynida ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatni o‘zaro hurmat, ahillik ruhida boshqarish borasida O‘zbekiston boy tajribaga ega bo‘ldi. Bu boradagi sa’y-harakatlar dunyo miqyosida katta qiziqish uyg‘otayotir.

Termiz shahrida faoliyat yuritayotgan viloyat rus milliy-madaniy markazi faol a’zolaridan biri Norixo Bokumenkoni vohada ko‘pchilik yaxshi taniydi. Bu san’at murabbiysini ko‘pincha umummilliy bayramlar, festivallar, konsert va uchrashuvlar, taniqli adabiyot, san’at va madaniyat arboblari bilan ijodiy uchrashuvlar, seminar va konferensiyalarda uchratasiz.

— Hayotimni san’atga bag‘ishlaganimdan roziman. Termizda dunyoga kelganman. Denovdagi maktab-internetda o‘qidim. Voha markazida musiqaga ixtisoslashgan texnikumda tahsil oldim. Konservatoriyani fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha tamomladim. Shu ko‘yi Termizga qaytib, umrimni san’atga, o‘qituvchilikka, vatan koriga yaraydigan farzandlar, shogirdlar tarbiyalashga bag‘ishladim, — deydi Norixo Bokumenko. — Mana qariyb

40 yildan oshdi: yuragim hapqirib, erta tongdan musiqa maktabiga yo‘l olaman. O‘zim sevgan o‘qituvchilik bilan shug‘ullanib kelmoqdaman. Daraxt bir joyda ko‘kararkan. Yillar davomida ashqol-dashqolini yig‘ishtirib, kelib-ketib yurganlarni ko‘p ko‘rdim. Xulosa qildimki, doimo mas’uliyat bilan kasbiga yondashgan inson kelajakda shogirdlar ardog‘ida bo‘la oladi.

Hozir 70 yoshni qarshilash arafasida turgan yurtdoshimiz peshonasiga shunday vatanda yashash yozilganidan bir umr minnatdorligini aytadi.

Norixo Bokumenkoning otasi asli Armanistondan. Harbiylik tufayli O‘zbekistonga keladi va asli Turkmanistondan bo‘lgan laborant qizga ko‘ngil qo‘yadi. Ikki yoshning hayot rishtasi shu yerda bog‘lanadi. Ikki millat vakili oila qurib, O‘zbekistonni vatan deb biladi.

— Vatanga muhabbat — oliy tuyg‘u. Basharti uni qadrlasangiz, nafaqat yashashingiz, balki mehnat faoliyatingiz, shuningdek, erishayotgan har bir yutug‘ingizga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, — deydi musiqa fani o‘qituvchisi Norixo Bokumenko.

Muallima mehnat faoliyatini Termiz shahridagi musiqa bilim yurtida boshlagan. Uni yaxshi bilganlar siz mashhur opera ustasi bo‘lishingiz mumkin edi, deydi. Chunki murabbiyning jozibali ovozi shundan dalolat beradi. Undan nega san’atda yuqori yutuqlarga erishish oson bo‘lgan katta shaharlarda, jumladan, poytaxtda yashamagansiz, deya so‘rashadi. Norixo Bokumenko bunday savoldan so‘ng jilmayadi. Olis bolalik chog‘iga xayolan safar qilayotganday bir maromdagi ohangda javob beradi:

— Ishingizni yaxshi ko‘rsangiz, ko‘zi yonib turgan, kelajakka ishonchi bor yoshlarni uchratsangiz, ular iqtidorini yuzaga chiqarishni istaysiz. Buning uchun qayerda, qay darajada yashashingizning ahamiyati yo‘q. Bugun o‘nlab shogirdlarim xalqaro hamda mamlakat miqyosidagi san’at va musiqa tanlovlarida g‘olib bo‘lib kelyapti. Imtiyozli ravishda oliygohlarda tahsil olib, yurtimiz san’ati rivojiga hissa qo‘shmoqda. Menga aynan shu kerak.

Norixo Bokumenko hozir Termiz shahridagi 2-Bolalar musiqa va san’at maktabida dars beradi. Aytishicha, asl pedagog kasbini sevishi lozim. U ishini yaxshi ko‘rmasa, shogirdini to‘g‘ri yo‘lga boshlamasa, bu sohadan ketgani ma’qul. Muallima faoliyati davomida 100 dan ortiq shogird tarbiyalab, ularning turli xalqaro va respublika tanlovlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritishi uchun bor imkoniyatini ishga soldi.

Qahramonimiz hozir sevimli ona, mehribon buvi. Undagi kasbga sadoqat va fidoyilik farzandlarining ham shu sohani tanlashiga rag‘bat uyg‘otgan. Qizi Yekaterina Bokumenkoning so‘zlariga ko‘ra, yoshlikdan onasining qo‘lidan tutib, mashg‘ulotlariga borgan, tanlovlarda ishtirok etgan. Ayni paytda u Termiz davlat universiteti talabasi. Yaqinda Rossiyada bo‘lib o‘tgan Grand music xalqaro tanlovining instrumental janr (fortepiano) nominatsiyasida I darajali diplom hamda Sopravista international festivals “ALL COLOURS OF ART” ITALI» onlayn festivalida sertifikat va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

— Ona sifatida farzandlariga, fidoyi ustoz, shogirdlariga nisbatan qattiqqo‘l va talabchan. Shu bilan birga, mehribon. Bu yo‘lda onam aslo kuch-g‘ayratini ayamaydi, — deydi Yekaterina Bokumenko.

Norixo Bokumenkoning qariyb yarim asrlik mehnati zoye ketmagan. U davlatimiz hamda xorijiy mamlakatlarning qator ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi.

70 yoshda ham bulbuldek kuylab, baland pardalarda yuksak darajadagi opera asarlarini mahorat bilan shogirdlari jo‘rligida ijro etayotir.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘smirlik nigilizmi — juda yoqimsiz, albatta, lekin undan qochib ham bo‘lmaydi. Bola o‘smirlik yoshiga kirganida ular nazdida nufuzingizni saqlashga harakat qiling. Ular bilan suhbatlashing. O‘smirlik davringiz, qanday qiyinchiliklarga duch kelganingiz va ularni qanday yengib o‘tganingiz haqida so‘zlab bering. Farzandingizga hamisha uning tomonida ekaningizni bildiring.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Bugunning gapi

FARZANDIM MENDAN ANDAZA OLADI

shuning uchun, avvalo, o‘zimni tarbiyalashim kerak

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hozirgi bolalar bundan 10 yoki 20 yil oldingidek emas: o‘zgacha qiziqish, o‘zgacha xulq va madaniyatga ega. Bugungi avlod hech bir jihatdan kattalardan kam yoki ustun emas. Ular shunchaki boshqacha. Chunki hozir hayotning o‘zi o‘zgacha kechmoqda. Shu bois, bolalar, albatta, o‘sha boshqacha hayotga, uning voqeligiga va qadriyatlariga bizdan ko‘ra yaxshiroq moslashadi.

Bizning avlod hayotning yangicha formatiga moslashishga majbur bo‘lgan. Ular uchun esa bu mutlaqo tabiiy hol. So‘zsiz, yoshlar dunyoga teran, ochiq boqishi bilan ajralib turadi. Ular uy ostonasidan chiqib, o‘zini yangi biron sohada sinab ko‘rishdan

cho‘chimaydi. Biz hatto nomini talaffuz qilishga qiynaladigan, maxsus bilimsiz ma’no-mohiyatini tushuna olmaydigan yangi kasblarga boshi bilan sho‘ng‘ib ketgan.

Ozor huzurga aylanmasin

Kompyuter, telefon, gadjetlarni qo‘ya turaylik, ularni amallab nazorat qilish mumkindir, ammo har qadamdagi oshkora yoki pinhona PlayStation kabilar bugun buzg‘unchilik uyasiga aylanib ulgurdi. Bir kuni ishdan kechroq chiqib, metroda qo‘shnimning o‘spirin o‘g‘lini uchratib qoldim. Birga suhbatlashib ketdim.

— Kech bo‘lganda qayerdan kelyapsan?

— PlayStation o‘ynab qolib ketibman.

O‘zimni go‘llikka soldim. Bir tomondan rostdan ham bu haqida aytarli tasavvurim yo‘q edi.

— Nima u?

— O‘yin.

— Qanday o‘yin u?

Bola berilib PlayStation haqida ma’lumot bera boshladi. Tushunganim shu bo‘ldiki, hozir

aksariyat yoshlar shu kabi o‘yinlarga mukkasidan ketgan. Ular orasida pul tikib o‘ynaladiganlari ham bor. Bundan ham ayanchlisi, bolalarning o‘z domiga tortayotgan o‘yinlarning asosini vahshiylik, g‘azab, urush, qotillik kabilar tashkil qiladi. Ushbu o‘yinlarni kunda-kunora o‘ynaydigan bolalarning fe’l-atvori ham shunga mutanosib ravishda shakllanib boradi. Bola jizzaki, beshafqat, salga tutaqib ketadigan, yonidagilarga ozor berishdan cho‘chimaydigan va hatto bundan huzur oladigan darajaga yetadi. Bundan ortiq dahshat bo‘lmasa kerak.

* * *

Yaqinda ish bilan viloyatlardan birida 2-3 kun bo‘lishimga to‘g‘ri keldi. Imkoniyatdan foydalanib, bo‘sh vaqtimni chamalab, o‘sha yerlik kursdoshlar bilan uchrashdik. Nasibaning o‘qituvchilik qilishidan xabarim bor edi. Suhbat orasida u “tezroq pensiya yoshiga yetib olsam, ishlamasdim”, deb qoldi. Nima uchun pensiyaga bu qadar oshiqayotgani sababi bilan qiziqdim.

— Hammasi jonga tegdi, — fig‘oni ko‘kka bo‘yladi kursdoshimning. — Bu bolalar bilan dars o‘tib bo‘lmay qoldi. Yaxshiyam hozir ta’til, ancha xotirjamman. Aks holda, meni asabiy holatda ko‘rib, qo‘rqib ketgan bo‘lardingiz.

— Tinchlikmi?

— Sinfning yarmidan ko‘pi telefon jinnisi, es-xayoli qo‘lidagi matohda. O‘zaro o‘yin o‘ynaydi, bir-birini suratga tushirib, ijtimoiy tarmoqda “layk” yig‘adi. O‘t tushsin shu telefoniga ham. Na dars qulog‘iga kiradi, na qoyillatib uy vazifani tayyorlab keladi. Hozir ularni urib-so‘kadigan zamon emas. Dars vaqti ularni tartibga chaqirish, bahslashish bilan o‘tib ketadi. Muomala madaniyati, umuman, yo‘q, gap qaytaradi, aksariyati tajovuzkor, ko‘zingizga qarab turib barobar tortishadi. Kitob tutgan bola barmoq bilan sanarli.

— Ota-onalarni jalb qilmaysizlarmi, xabarini bermaysizlarmi? Mahalla-ko‘y degandek aralashmaydimi?..

— Aytib charchab ketamiz, asabim ado bo‘ldi. Hamma aybni o‘zimizga ag‘darib qo‘yadigan ota-onalar ham ko‘p. Tushunganlari bola tarbiyasi bilan shug‘ullanadi, bizga yordam bermoqchi bo‘ladi, ammo bunaqalar juda oz.

Kursdoshimga o‘zimcha nimalardir dedim, maslahat bergan bo‘ldim, ammo ko‘nglidagi dard-alam o‘ti, hasratidan osmonni to‘zitib chiqayotgan chang, nazarimda, zarracha so‘ngani yo‘q.

Muammoning yechimi bormi?

Muomalamizga “ommaviy madaniyat” tushunchasi kirib kelganiga ham ancha bo‘ldi. U hayotning barcha sohasini o‘zida mujassam etgan zamonaviy hayot hodisasi, deydi mutaxassislar. Bolalar tabiatan hamma narsadan “nusxa ko‘chiruvchi” bo‘lgani uchun ham ko‘proq uning ta’siriga tushib qoladi. Shu bois, biz hayotda bolalar bezoriligi, urishqoqligi, qo‘polligi, janjalni pulga sotib olishiga to‘qnash kelamiz. Ammo o‘sha bolalarning aksariyati to‘dadan chetda o‘zini tuppa-tuzuk tutadi, yaxshi-yomonni ajrata oladi va harakatlari mutanosib bo‘ladi. To‘da ichida esa haligi xususiyatlar beiz yo‘qoladi, o‘zgalarning tajovuzkorligi unga juda tez o‘tadi.

Taniqli psixolog Dilyora Ahmedovaning so‘zlariga quloq tutsak, masala bir oz oydinlashsa kerak:

— Yoshlar uchun virtual olam haqiqiysidan afzalroqdek. Bu nimalarga olib borishi mumkin? Virtual makonda muloqot qilish osonligi tushunarli. Ko‘pincha yoshlar orasida jonli muloqot o‘rnini videolarga havolalar, fotosuratlarga “layk”lar egallaydi. Yuzma-yuz muloqotga talab kamayib ketdi. Nima tanovul qilayotgani, kimlar bilan o‘tirgani, qanday tadbirga borgani to‘g‘risidagi ma’lumotni ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish kabi odatlar yoshlarni domiga tortdi.

Yigit-qizlar uyg‘ongach, birinchi qiladigan harakati — qo‘liga gadjetni olish. Uyqusida esa halovat yo‘q. Chunki internetda qiziqarli ma’lumotlar shunchalar ko‘pki, yoshlar bu qiziqarli olamga faqat tungi soatlarda sho‘ng‘ish imkoniga ega. Uyquning buzilishi esa salomatlikka zarar keltiradi. Tarmoqda yigit-qizlar u shoxdan bu shoxga o‘tayotgan qushlar kabi u saytdan bunisiga, bunisidan boshqasiga o‘tadi. Bu esa diqqatni jamlashning buzilishiga, fikrlashning yuzaki bo‘lishiga olib keladi. Ular uchun biror mavzuni o‘rganish, ko‘proq matn o‘qish yoki qandaydir muhim narsaga diqqat qaratib turish zerikarli tus oladi.

O‘smirlikning haqiqiy yoshi — 12 dan 16 yoshgacha. Murakkab davr. Endi bu toifa bola emas, lekin hali katta ham emas. Ularda har ikkalasining — kattalarning ham, kichiklarning ham xususiyati mavjud bo‘ladi. Ko‘pchilik kattalar u yoki bu vaziyatga o‘smirning munosabati qanday bo‘lishini oldindan aytolmaydi. Chunki bu uning ulg‘ayayotgan qismidan bo‘ladimi yoki bolalik qismidan, aytib bo‘lmaydi.

O‘tish yoshidagi o‘g‘il-qizlarga ham oson tutib bo‘lmaydi, albatta. Ular o‘zini anglab olmaguncha boshqalarni tushunolmaydi. Nufuzli, hurmatli shaxsga aylanish uchun ota-ona muhimligini bir chetga surib qo‘yishi kerak bo‘ladi. Shu bois, o‘smirlar ota-ona fikr-mulohazasini nazar-pisand qilmay, ularning qarashlari bilan kurashadi. Ana shu davrdan o‘tib olish kerak.

O‘smirlik nigilizmi — juda yoqimsiz, albatta, lekin undan qochib ham bo‘lmaydi. Bola o‘smirlik yoshiga kirganida ular nazdida nufuzingizni saqlashga harakat qiling. Ular bilan suhbatlashing. O‘smirlik davringiz, qanday qiyinchiliklarga duch kelganingiz va ularni qanday yengib o‘tganingiz haqida so‘zlab bering. Farzandingizga hamisha uning tomonida ekaningizni bildiring. Biroq quloqsizlik itoatsizlik sifatida qabul qilinmasligi lozim. Bolani siz bilan hisoblashishga, boshqalarning ham fikrini hurmat qilish kerakligiga o‘rgating. O‘zingiz ham uni hurmat qiling. Masalan, uning buyumlarini titkilash, taqillatmasdan, dabdurustdan xonasiga bostirib kirish to‘g‘ri emas.

Fikrlashdan to‘xtamaylik

Texnologiyalarga nisbatan e’tibor kuchayishi natijasida bolalarning kitobga qiziqishi bir oz susaygani bor gap. Bu esa ular ma’naviyatiga salbiy ta’sir etadi. Yaqinda Germaniyada o‘zbekistonlik qiz nemis tili bo‘yicha jahon olimpiadasida g‘olib bo‘ldi. 62 davlat o‘quvchilari bellashgan bahslarda Rayyona Ibrohimovaga teng keladigan topilmadi. Yoki Diyora Keldiyorova Parij olimpiadasida jismoniy mahorat va imkoniyati bilan butun olamni o‘ziga mahliyo qila oldi.

Nima, Rayyona bilan Diyora kompyuterdan internetga kirmaganmi yo telefondan foydalanmaganmi? Pichoq qotil qo‘lida qurol, oshpaz qo‘lida esa mo‘jizalar yaratadi, deganlaridek, ular bu imkoniyatdan o‘z vaqtida to‘g‘ri va samarali foydalangan. Biri ilm olgan, o‘rgangan, kitob o‘qib, ma’naviyatini boyitgan, ikkinchisi bulardan tashqari, jismoniy barkamollikka erishgan.

“Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasa, fikrlashdan ham to‘xtaydi”, degan gap bor. Bugungi shiddatli davrda insonning ma’naviy hayotida kitobning o‘rni juda yuksak. Kitob o‘qish orqali inson hayot kechirishni, ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lishni o‘rganadi.

Farzandlarimizni qanday qilib kitob o‘qishga qiziqtirish mumkin? O‘quvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishini oshirishning qanday usullari bor? Eng avval ota-onaning o‘zi kitob o‘qishda shaxsiy namuna ko‘rsatishi lozim. Zero, farzandimni tarbiyalayman, deb ovora bo‘lib yurmang, foydasi yo‘q. O‘zingizni tarbiyalang, farzandingiz sizdan andaza oladi.

Shiddatkor zamon va axloqiy yondashuvlar

Bundan 4-5 yil avval ijtimoiy tarmoqlarda ayanchli bir lavha keng tarqalgani ko‘pchilikning yodida bo‘lsa kerak. Unda xitoylik ona erta-yu kech muk tushib o‘tiradigan o‘g‘lining qo‘lidan telefonni olib qo‘yadi. 10-11 yoshli bola telefonni qaytarishni so‘rab, onasining qo‘liga yopishadi, ovozining boricha chinqirib, jazavaga tushadi. Volidasini haqoratlaydi. Ona ham bo‘sh kelmaydi, telefonni bermasligini aytadi. O‘g‘il o‘zini nazorat qilolmay, oshxona pichog‘ini olib yo o‘zini, yo onasini so‘yib tashlashini bildiradi. Tahdid bilan onasiga tashlanadi, telefonni tortib oladi va ko‘chaga yugurib chiqib ketadi. Ona esa dod-faryod qilgancha holsizlanib o‘tirib qoladi.

Yoki yana bir manzara: 2-3 yoshli go‘dakning qo‘lidan telefon olib qo‘yilganida oyoq-qo‘lini tipirchilatgancha yig‘lashga tushadi, qaytarib berilganda esa zumda tinchlanadi. Bu harakat 2-3 bor takrorlanadi. Afsuski, dunyoning deyarli barcha davlatida ana shunday avlod yetishib kelyapti. O‘z vaqtida zarur chora-tadbirlar ko‘rilmasa, buning oqibati ayanchli bo‘ladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yosh avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishiga e’tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘g‘il-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator islohotlarga keng jamoatchilik ham qo‘shildi.

Shiddatli zamonda an’anaviy axloqiy yondashuvlar tez-tez almashib turadi. Yosh avlodning axborot makoniga sho‘ng‘ib ketishi xavfi va farzandlarimizni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan himoya qilish mavzusi davriy matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo‘lyapti.

Yoshlar fikri

Mohira HAKIMOVA,
O‘zDJTU talabasi

Raqamlar O‘zbekistonga 2023-yilda umumiy hisobda 6,6 million xorijlik sayyoh kelganini ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich 2022-yilda 5,2 millionni tashkil etganini hisobga olsak, mamlakatimiz turizm imkoniyati yaxshigina o‘sganini ko‘ramiz. AQSHning Travel Lemming onlayn sayohat qo‘llanmasi 2023-yilda O‘zbekistonni dunyoning 50 ta eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi ro‘yxatiga kiritdi va mamlakatimiz 9-o‘rinni egalladi. Qo‘llanma har yili dunyo bo‘ylab yangi yo‘nalishlar va yashirin durdonalarni yoritadi, uni 6 milliondan ko‘p sayohatchi o‘qiydi.

MAZALI VA UNUTILMAS TA’M

O‘zbekiston sayyohlar yodida qolsin!

Aksariyat sayyohlar yurtimizga va turli davlatlarga madaniy hordiq chiqarish uchun boradi. Ular orasida mazali va mashhur taomlarni yoqtirgani uchun ham sayohatga boradiganlar yo‘q emas.

Sayyohlar muayyan mamlakatga safar chog‘ida o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan yaqindan tanishadi, bu gastronomik turizm deyiladi.

Gastronomik sayyohlar, aslida, kimlar? Odatiy sayyohlikdan zerikkan, ovqatlanish ratsioniga o‘zgartirish kiritayotgan, shu bilan birga, gurmanlar (oziq-ovqatlarni baholovchi va tatib ko‘ruvchilar), kasb-kori gastronomiya bilan bog‘liq mutaxassislar (restorator, oshpaz, umumiy ovqatlanish korxonasi xodimlari), sayyohlik agentlari (sayyohlik turlari tashkil qilish uchun milliy taomlarni o‘rganadiganlar) dir.

Milliy va an’anaviy taomlar, ularning tayyorlanish jarayoni, dasturxonga tortish usullarining guvohi bo‘lish uchun, albatta, gastronomik sayohat amalga oshiriladi.

O‘zbek milliy taomlari dunyo taomlari orasida xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu nozikta’b sayyohlarga birdek manzur keladi. Jumladan, Toshkentning osh, do‘lma, norin, manti, beshbarmoq, sho‘rvasi, Xorazmning tuxumbarak, qo‘tirbarak, patir, palov, gurvak qovuni, Jizzax somsasi, Sirdaryo balig‘i, Buxoroning G‘ijduvon kabobi, Samarqandning mashhur noni, Qashqadaryo tandir go‘shti tillarda doston. Madaniyatimizga ko‘ra, mehmon hamisha iliq kutib olinib, dasturxon turli shirinliklaru murabbolar, mazali taomlar bilan to‘ldiriladi. Sayohatni rad etadigan har qanday sayyoh ham bizdagi xushbo‘y hidli va ishtahani qitiqlaydigan taomlarni rad etolmaydi. Ushbu gastronomik sayohat yillar davomida unutilmas ta’m taassurotini beradi hamda buni qayta takrorlash istagini paydo qiladi.

Yurtimizda birgina nonning bir necha turi mavjud. Bular oddiy non (viloyatlar bo‘yicha turlicha), patir, shirmoy non, qatlama. Somsa, manti, xonim, chuchvara, norin, qovurma lag‘mon kabilar xamirli taomlar sirasiga kiradi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi ko‘proq shirinlikni yaxshi ko‘radi, ya’ni quritilgan meva, sumalak, holva, holvaytar, nisholda, chak-chak, bo‘g‘irsoq, qushtili, paxlava, behi-do‘lma shular jumlasidan.

Ichimliklardan esa birinchi o‘rinda choy, qolgan paytlarda sharbat, ayron ichiladi. Bularni biz boyligimiz, deya olamiz. Milliy taomlar mamlakat yoki jamiyatda madaniy ahamiyatga ega. Ular an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar va xalqning o‘ziga xosligini shakllantiradigan noyob oshxona merosini ifodalaydi. Zero, sayyohlar mamlakatni milliy taomlari bilan ham eslab qoladi.

Gastronomik turizm yurtimizda yoyilar ekan, biz sayyohlarga ko‘ngildagidek xizmat ko‘rsata olyapmizmi?

Tansiq taomlarimiz ko‘p bo‘lsinu, gastronomik sayyohlar ovqatlanish uchun biror restoranga kirganida o‘rtada muloqot o‘rnatish uchun avval tilini tushunmasak, bu qiyin masala. Aksariyat xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar faqat rus tili bilan cheklanadi. Vaholanki, ko‘plab sayyohlar ingliz tilida muloqot qiladi. Bundan tashqari, yildan yilga barcha qit’adan yurtimizga keladigan xorijiy sayyohlar soni ko‘paymoqda. Xizmat ko‘rsatuvchi xodim ularning tilini bilmasa, bir so‘z deya olmay tursa, bundan yomoni yo‘q. Ingliz tilini muloqot darajasida bilsak, xorijlik sayyohlar bilan muomalada qiynalmaymiz.

Gastronomik sayyohlik madaniy turizm doirasida muhim va rivojlanayotgan soha ekan, sayyohlar yangi yo‘nalishlarni o‘rganib, butun dunyo bo‘ylab sayohat chog‘ida noyob oshpazlik tajribalarini izlaydi. Mahalliy oshxona va ovqatlanish urf-odatlariga sho‘ng‘ish orqali sayohatchilar o‘zi tanlagan manzilning tarixi, madaniyati va an’analari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, gastronomik turizm mahalliy biznes, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishga foyda keltiradi, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga sezilarli darajada hissa qo‘shadi. Bu unutilmas tajribalarni izlayotgan sayyohlar uchun ham, ularni quchoq ochib, mazali taomlar bilan kutib oladigan mezbonlar uchun ham ancha manfaatlidir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2677.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:30 Topshirildi — 23:50

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05